

# Stomatologik kasalliklarning oldini olishda og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi vositalarining ahaliyati

Maftuna Alisherovna Zubaydullaeva

Javlon Jalol o‘g‘li Norxolov

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

**Annotatsiya:** Odamlarning stomatologik salomatligi zamonaviy jamiyatning muhim muammosidir. Barcha davrlarda tishlarning sog‘lomligi, shubhasiz, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi bilan bog‘liq bo‘lgan, shifokorlar inson tishlari sog‘lom bo‘lsa, sog‘lom bo‘ladi, deb ta’kidlashgan. Og‘iz bo‘shlig‘ining professional va individual gigiyenasi stomatologik kasalliklarning oldini olishning asosiy tarkibiy qismi va aholining stomatologik salomatligining asosiy ko‘rsatkichidir. Tish cho‘tkalari, tish pastalari, eliksirlar, chayish vositalari kabi maxsus gigiyena vositalari yordamida og‘iz bo‘shlig‘ini har kuni parvarish qilish og‘iz bo‘shlig‘i salomatligini saqlash va qattiq to‘qimalar, parodont to‘qimalari kasalliklari rivojlanishining oldini olish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** profilaktika, karies, asosiy va qo‘srimcha vositalar, tish cho‘tkalari, tish pastalari, eliksirlar, irrigatorlar, og‘iz bo‘shlig‘i uchun chayuvchi vositalar, chaynov rezinkalari

## The importance of oral hygiene in the prevention of dental diseases

Maftuna Alisherovna Zubaydullaeva

Javlon Jalol oglu Norkholov

Samarkand State Medical University

**Abstract:** Dental health of people is an important problem of modern society. At all times, the health of teeth has undoubtedly been associated with oral hygiene, doctors have always emphasized that a person is healthy if his teeth are healthy. Professional and individual oral hygiene is a key component of the prevention of dental diseases and a key indicator of the dental health of the population. Daily oral care with special hygiene products such as toothbrushes, toothpastes, elixirs, rinses allows you to maintain oral health and prevent the development of diseases of hard tissues and periodontal tissues.

**Keywords:** prevention, caries, basic and additional tools, toothbrushes, toothpastes, elixirs, irrigators, mouthwashes, chewing gums

Dolzarbligi: Ko‘plab adabiyotlar tish karashi tish kariesi rivojlanishining sabablaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Kariesning dastlabki shikastlanishi tish karashining to‘planishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan joylarda (chuqurchalar va fissuralar, aproksimal yuzalar va bo‘yin sohalari) paydo bo‘ladi. Og‘iz bo‘shlig‘ining kariesogen mikroflorasi karies paydo bo‘lishining etiologik omili bo‘lib xizmat qiladi. Bunday mikroflora paydo bo‘lishi va karies rivojlanishi uchun ma’lum sharoitlar mavjud bo‘lishi kerak. Bu sharoitlar oson fermentlanadigan uglevodlarni qabul qilish kabi omillar bo‘lishi mumkin, buning natijasida tish pilakchasi shakllanadi. Agar demineralizatsiya jarayoni remineralizatsiyadan ustun bo‘lsa, karies hosil bo‘ladi. Bunda tish emalining rezistentlik darajasi past bo‘lganda karies rivojlanishi mumkin.

Og‘iz bo‘shlig‘i doimiy mikroflorani shakllantiruvchi turli xil mikroorganizmlar uchun noyob ekotizimdir. Boy ozuqa muhiti; doimiy namlik, pH va haroratning optimal qiymati turli xil mikroorganizmlarning yopishishi, kolonizatsiyasi va ko‘payishi va natijada turli xil stomatologik kasalliklarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shuning uchun ularning oldini olishning eng ta’sirchan va shu bilan birga eng oddiy va arzon choralaridan biri tishlarni to‘g‘ri va samarali parvarish qilishdir. Shu bilan birga, profilaktika chora-tadbirlarini o‘tkazish og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi holatiga ta’sir qiluvchi barcha omillarni hisobga olgan holda individual yondashuvni talab qiladi.

Biroq, aholining atigi 9,27 foizi kuniga 1 martadan ortiq tishlarini tozalaydi va aholining 11,3 foizida og‘iz bo‘shlig‘ini parvarish qilish umuman yo‘q. Biroq, bemorlar og‘iz bo‘shlig‘ining individual gigiyenasi uchun asosiy vositalar bilan tishlarni noto‘g‘ri tozalaydilar, shuning uchun ushbu usulning mavjudligi va samaradorligiga qaramay, karashni to‘liq mexanik bartaraf etish amalga oshirilmaydi. Bu aksariyat hollarda ota-onalar bolalarga oddiy ko‘nikmalar va shaxsiy gigiyena qoidalarini singdirmaganliklari bilan bog‘liq. Shuningdek, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasiga bo‘lgan munosabatning shakllanishiga yana bir sabab ta’lim darajasi, ijtimoiy sharoitlardir. Aholi og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi haqida asosiy profilaktik va davolash ta’siri sifatida tasavvurga ega emas.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, karies va parodontit global muammo hisoblanadi - stomatologlar milliardlab kariesga chalingan tishlar va uning oqibatlarini davolashni ta’minlay olmaydi. Profilaktika sog‘lijni saqlash samaradorligining asosi bo‘lib, bunda minimal mehnat va mablag‘ sarfi maksimal samara beradi.

Etiologiyasi ma’lum bo‘lgan og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi kasalliklarining oldini olish ularning paydo bo‘lish sabablarini bartaraf etishdan iborat. Chunonchi, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida paydo bo‘ladigan infekcion kasalliklar (zaxm va boshqalar) ning oldini olish uchun organizmga infeksiya kirishiga yo‘l qo‘ymaydigan

chora-tadbirlar ko‘rish zarur. Etiologiyasi aniqlanmagan og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasi kasalliklarining oldini olish xavf omillarining ta’sir kuchini yo‘qotish yoki kamaytirishga, organizmning qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Profilaktik chora-tadbirlarga kasalliklarni erta aniqlash va bemorlarni o‘z vaqtida davolash ham kiradi. Og‘iz bo‘shlig‘i saratonining oldini olishning eng samarali choralaridan biri og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining surunkali kasalliklari aniqlanganda, keyinchalik dispanser kuzatuvi bilan olib boriladigan muntazam profilaktik tekshiruvlardir.

Tishlarni tozalash sifati va, binobarin, profilaktik tadbirlarning samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan gigiyena usullari va vositalariga bog‘liq bo‘ladi.

Og‘iz bo‘shlig‘i shaxsiy gigiyenasining asosiy vositalari:

- tish pastalari,
- tish kukunlari;
- tish cho‘tkalari.

Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining qo‘srimcha vositalari:

- flosslar (tish iplari),
- tish kovlagichlar;
- irrigatorlar (gidromassajerlar),
- og‘iz bo‘shlig‘i uchun chayuvchi vositalar,
- chaynov rezinkalari.

Og‘iz bo‘shlig‘ining professional gigiyenasi - mutaxassis-stomatolog (gigiyenist) tomonidan o‘tkaziladigan muntazam chora-tadbirlar majmui bo‘lib, u karies va parodont kasalliklarining rivojlanishini oldini olishga qaratilgan. Bu majmua quyidagilarni o‘z ichiga oladi: tishlarni professional tozalash, og‘iz bo‘shlig‘ining nazorat qilinadigan individual gigiyenasi (og‘iz bo‘shlig‘ining gigiyenik holatini baholash, profilaktik muolajalarga rioya qilish uchun motivatsiya yaratish maqsadida stomatologik ma’rifat, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasining individual usullari va vositalarini tanlash, gigiyenik chora-tadbirlar samaradorligini nazorat qilish), minerallashtiruvchi tarkiblar va tishlarning sezgirligini pasaytiradigan vositalarni qo‘llash, hamda fissuralarni germetizatsiya qilish. Kundalik klinik amaliyotda tishlarni professional tozalash uchun elektromexanik usul eng keng qo‘llaniladi. Tish karashlarini olib tashlash uchun asosiy vositalar an‘anaviy ravishda ultratovush apparatlari va tovushli skelerlar hisoblanadi. Ular tish karashlarini samarali olib tashlaydi, ammo ishlov berish tugagandan so‘ng tishning mukammal silliq yuzasini olish imkonini bermaydi. Tish yuzasidagi tish karashlari olib tashlangandan so‘ng yana "tish" pilakchasi hosil bo‘la boshlaydi. Shuning uchun tish karashlari olib tashlangandan so‘ng, tish qattiq to‘qimalari yuzasini silliqlash va sayqallash kerak.

## MUHOKAMA NATIJALARI:

Umumiy tadqiqot natijasida ma'lum bo'lishicha, aholi og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga unchalik ahamiyat bermaydi, vaholanki, bu inson salomatligining muhim tarkibiy omilidir. Ko'p odamlar og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga rioya qilsalar ham, salbiy oqibatlarga olib keladigan xatolarga yo'l qo'yadilar.

Profilaktikaning asosiy vazifalari kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishining sabablari va sharoitlarini bartaraf etish, shuningdek, organizmning atrof-muhitning noqulay omillari ta'siriga chidamlilagini oshirishdan iborat. Stomatologik kasalliklarning individual profilaktikasining asosiy maqsadi gigiyenik muolajalarning roli va ahamiyatini anglash, stomatologik bilimlar darajasini oshirish, tishlar salomatligini saqlash motivatsiyasini ishlab chiqish orqali aholini sog'lomlashtirishdan iborat.

Stomatologik kasalliklarning individual profilaktikasining asosiy vazifalaridan biri mamlakatning barcha aholisi uchun ma'lum bo'lgan umumiy qabul qilingan chora-tadbirlarni cheklovatarsiz va qo'shimcha tavsiyalarsiz targ'ib qilish emas, balki har bir aniq shaxs uchun profilaktika choralarini individuallashtirish orqali profilaktika tizimini takomillashtirish orqali mamlakat aholisini sog'lomlashtirishdir.

Profilaktik chora-tadbirlarning dolzarbli davolash tadbirlari hajmining va natijada moddiy xarajatlarning kamayishida ham ifodalanadi. Profilaktika usullarining narxi allaqachon rivojlangan kasalliklarni davolash narxidan 20 baravar pastligi haqidagi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi. Biroq, ko'plab mualliflar tomonidan og'iz bo'shlig'ini to'g'ri parvarish qilish karies jarayonining o'sish intensivligini pasaytirishi ishonchli tarzda ko'rsatilgan.

## XULOSALAR:

Shunday qilib, ko'p sonli ilmiy adabiyotlarni tahlil qilib, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi stomatologik kasalliklar profilaktikasining muhim tarkibiy qismi ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зубайдуллаева М. А. К., Рахимбердиев Р. А. Кариес зубов у детей раннего возраста: эпидемиология, этиология, профилактика, лечение //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 4 (58). – С. 79-87.
2. Баратова Ш. Н., Рахимбердиев Р. А., Шамсиев Р. А. Особенности течения и диагностики кариеса зубов у детей младшего школьного возраста //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 1 (55). – С. 83-88.
3. Родионова А.С. «Современные технологии для ранней диагностики кариеса». Стоматолог-практик, 2014. № 4. С. 36-37.

4. Баратова Ш. Н., Рахимбердиев Р. А., Шамсиев Р. А. Профилактика кариеса постоянных зубов у детей младшего школьного возраста //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 4 (58). – С. 67-74.
5. Ботировна С. Дж., Кизи З. М. А., Кизи Р. С. Б. Пародонтит // Техасский журнал медицинских наук. – 2021. – Т. 3. – С. 38-39.
6. Зубайдуллаева М. А. К., Рахимбердиев Р. А., Шамсиев Р. А. Гигиенический уход за полостью рта у детей раннего возраста //Достижения науки и образования.